

Andijon viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari ¹ 2025- yil yanvar-aprel


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida o'zgarishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025- yil yanvar-aprel oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, (norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda), ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 14 395,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,2 %** ni tashkil etib, uning hajmi esa **2 755,0** mlrd. so'mga o'sishi qayd etildi.

Ma'lumot uchun: 2024- yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar hajmi **11 640,7** mlrd. so'mni, o'sish sur'ati esa **111,2 %** ni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



¹ 2024- yil yanvar-aprel oylari hajmi va 2025- yil yanvar-aprel oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

2025- yilning yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 151,6** ming so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davri (**3 422,0 ming so'm**)ga nisbatan **729,6** ming so'mga yoki **10,0 %** ga o'sish qayd etildi.

Ushbu tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **10 524,0** mlrd. so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **73,1 %** ini tashkil etdi.

II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida o'zgarishi

Xizmatlar sohasining hududlar kesimida asosiy ko'rsatkichlari
2025- yil yanvar-aprel

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha jami	14 395,7	100,0	112,2
shahar va tumanlar:			
Andijon sh.	3 683,6	25,6	114,8
Xonobod sh.	234,6	1,6	114,1
Oltinko'l	413,1	2,9	113,3
Andijon	551,3	3,8	113,8
Baliqchi	483,6	3,4	113,6
Bo'ston	191,1	1,3	113,0
Buloqboshi	327,3	2,3	113,4
Jalaquduq	445,6	3,1	114,6
Izboskan	427,5	3,0	113,5
Ulug'nor	168,4	1,2	112,7
Qo'rg'ontepa	479,0	3,3	114,4
Asaka	597,0	4,1	113,9
Marhamat	389,1	2,7	113,7
Shahrixon	507,3	3,5	113,2
Paxtaobod	362,2	2,5	114,2
Xo'jaobod	390,8	2,7	114,3

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

Andijon shahri viloyatda yuqori ulushga ega (**25,6 %**) bo'lganligi, viloyatning eng yirik iqtisodiy markazi ekanligi bilan izohlanadi. Shuningdek, aholining yuqori zichligi transport infratuzilmasiga, savdoga, ta'limga, sog'liqni saqlash, xordiq chiqarish kabi turli xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni oshiradi. Bundan tashqari, viloyat rivojlangan transport tizimi, savdo va biznes markazlari hamda boshqa yirik obyektlarga ega bo'lib, u o'z o'rnida xizmatlar sohasini tobora rivojlanishiga o'z hissasini qo'shmoqda.

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 27- fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlarning 34,6 % ga (ko'rsatilgan xizmatlar jami hajmining o'sishiga ta'siri 5,2 bandni tashkil etdi), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 17,4 % ga (o'sishiga ta'siri 0,7 bandni), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning 16,9 % ga (o'sishiga ta'siri 0,3 bandni), transport xizmatlarining 9,5 % ga (o'sishiga ta'siri 1,5 bandni), savdo xizmatlarining 8,9 % ga (o'sishiga ta'siri 1,6 bandni), yashash va ovqatlanish xizmatlarining 6,8 % ga (o'sishiga ta'siri 1,8 bandni), o'sishi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning 7,6 % ga va ta'lim sohasidagi xizmatlarning 5,6 % ga va o'sishi jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmining 0,3 bandga o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-aprel)

	Hajmi, mlrd. so'm		O'sish sur'ati, % da
	2024- y.	2025- y.	
Xizmatlar – jami	11 640,7	14 395,7	112,2
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	437,8	559,0	117,4
moliyaviy xizmatlar	1 603,5	2 225,6	134,6
transport xizmatlari	1 894,3	2 348,9	109,5
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 815,8	2 245,1	109,1
yashash va ovqatlanish xizmatlari	3 189,8	3 830,6	106,8
savdo xizmatlari	2 382,9	2 729,0	108,9
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	213,6	278,2	107,6
ta'lim sohasidagi xizmatlar	382,4	483,9	105,6
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	205,0	256,6	116,9
ijara xizmatlari	177,1	244,9	109,9
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	254,2	303,0	109,6
shaxsiy xizmatlar	436,6	544,8	106,6
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	80,5	93,4	92,2
boshqa xizmatlar	382,8	497,8	110,0


Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar: Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi

2025- yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **26,6 %**, savdo xizmatlari **19,0 %**, transport xizmatlari **16,3 %**, moliyaviy xizmatlar **15,5 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **3,9 %**, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,4 %** ulushni tashkil etdi.

***Taqqoslash uchun:** 2024- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari **27,4 foiz**, savdo xizmatlari **20,5 foiz**, transport xizmatlari **16,3 foiz**, moliyaviy xizmatlar **13,8 foiz**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **3,8 foiz**, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,3 foiz** ulushni tashkil etgan.*

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining o'sishiga **telekommunikatsiya xizmatlarining** o'sishi ta'sir ko'rsatdi. 2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida **telekommunikatsiya** dasturlashtirish xizmatlarining aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **80,3 foizni** tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan uning o'sish sur'ati **114,6 foizni** tashkil etgan.

Telekommunikatsiya xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi




2025- yilning yanvar-aprel oylarida, **transport** sohasi tarkibidagi **pochta va kuryerlik xizmatlari (113,6 foiz)**, **omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlarida (121,3 foiz)** yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Havo transporti xizmatlari hajmining oshishiga ichki turizmning rivojlanishi va xalqaro turistik oqimning ko'payishi, yangi aviakompaniyalar va yo'nalishlarning paydo bo'lishi, aeroportlarning modernizatsiya qilinishi va infratuzilmaning yaxshilanishi kabi qator iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan bog'liqdir. Shuningdek, ushbu omillar omborga joylashtirish xizmatlari va yordamchi transport xizmatlarining o'sishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Elektron tijoratning o‘shishi, xususan, onlayn savdo va bozor maydonlarining kengayishi, logistika ta‘minotining yaxshilangani hamda zamonaviy saralash va yetkazib berish markazlarining tashkil etilgani, shuningdek, kuryerlik xizmatlari sohasida kichik biznesning rivojlanishi va raqobatning kuchayishi pochta va kuryerlik xizmatlarining o‘shishiga turtki bo‘ldi.

Transport xizmatlarining alohida turlari bo‘yicha xizmatlar hajmi (mlrd. so‘mda)



IV. Xizmatlar sohasining statistik ko‘rsatkichlari bo‘yicha tushuntirishlar

Oylik xizmatlar hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo‘lgan yuridik shaxslarning alohida bo‘linmalari va notijorat tashkilotlari (ro‘yxat) bo‘yicha statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma‘lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo‘yicha baholash;

d) fermer xo‘jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalariga ko‘ra baholash.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi – bu, xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko‘rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmat ko‘rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste‘molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo‘shgan holda) ma‘lum bir vaqt davomida ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha **ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko‘rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlarini bo‘yicha **hisoblangan to‘lovlar qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

Chiqarish uchun javobgar:
Xizmatlar sohasi statistikasi
bo'limi

Manzil: 170100, Andijon sh.,
Milliy tiklanish ko'chasi, 36- "A" uy,
Pochta: info@andstat.uz
Tel.: 74-224-80-00

